



UO'K: 821. 133.091-21

Zebo YAXSHIYEVA,
Turon universiteti professori v.b., filologiya fanlari doktori
E-mail: zebona.sevinch@gmail.com

Filologiya fanlari doktori D. Xalilova taqrizi asosida

ISTILOHDA YANA AMIR TEMUR SIYMOSI: QARASHLAR, IZLANISHLAR VA YONDASHUVLAR

Аннотация

Ushbu maqolada jahon adabiyotshunoslari va tarixchilari qatori musiqa ilmi ahllari, bastakorlari va dramaturglari orasida ham bosh ijod mavzusi bo'la olgan sohibqiron Amir Temur haqida olib borilgan izlanishlar hususida so'z yuritiladi. Ushbu buyuk siymo haqidagi obyektiv fikrlarni bildirgan olimlar faoliyati, xolis ilmiy qarashlari bilan o'zidan keyingi ilm ahllari vakillariga namuna bo'la olgan qalam sohiblari faoliyati ilmiy tahlil etiladi. Turli davrlarda va turli manbalarga yaratilgan sahna asarlari va adabiy namunalarni o'zaro solishtirish asnosida ulardan kelib chiqadigan xulosalar va ilmiy yangilik mushohadalari tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar: Obyektiv o'rganish, dramaturgiya, simfozium, Amir Temur, tarixiy-prosessual, solnoma asarlar, streotip.

THE IMAGE OF AMIR TEMUR IN RESEARCH: VIEWS, RESEARCH AND APPROACHES

Annotation

In this article written about the research conducted on great Amir Temur, who was the main subject of creativity among people, composers and playwrights of music science, as well as world literary scholars and historians. Scientific analysis of the activities of scientists who have expressed objective opinions about this great siymo, pen owners who, with their unbiased scientific views, have become models for representatives of the people of science after him. Because of the cross-comparison of dramas and literary specimens created at different times and to different sources, conclusions and observations of scientific innovation arising from them are studied.

Key words: Objective learning, dramaturgy, symposium, Amir Temur, historical-prosessual, solnoma works, streotype.

ОБРАЗ АМИРА ТЕМУРА В НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЯХ: ВЗГЛЯДЫ, ИЗЫСКАНИЯ И ПОДХОДЫ

Аннотация

В этой статье рассказывается об исследовании, проведенном о великом Амуре Темуре, который был главным предметом творчества людей музыкальной науки, композиторов и драматургов, а также мировых литературоведов и историков. Научный анализ деятельности ученых, высказавших объективные мнения об этом великом сиймо, владельцев пера, которые своими непредвзятыми научными взглядами стали образцами для представителей науки после него. Благодаря перекрестному сравнению драм и литературных произведений, созданных в разное время и по разным источникам, изучаются выводы и наблюдения о научных инновациях, вытекающих из них.

Ключевые слова: Объективное обучение, драматургия, симфонический оркестр, Амур Темур, историко-прозаический, произведения солнома, стереотип.

Kirish. Amir Temur shaxsini jahon ilm- fan, sanat va adabiyot sohasida buyuk siyosini xolisona talqinlarini tiklash, Sohibqironni G'arb va Sharq olimlari qarashlari, yozma va og'zaki manbalar asosida obyektiv o'rganish, solnoma va afsonayu rivoyatlarda noxolis yondashilgan, bo'rtirma g'alizliklarga ega ushbu siymoga berilgan xislatlarga aniqlik kiritish, yohud o'ta ideallashtirilgan madhlardan xolislikka olib kirish masalasi barcha sohalar: ilm-fan, tadqiqotchilarning ilmiy maqsadlaridan sanaladi. Bu vazifalarni bajarish uchun esa an'anaviy ravishda xalqaro konferensiyalar va simfoziymlar tashkil etish yo'lga qo'yildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yunesko qarorgohida "Temuriylar davri ilm fan, madaniyat va maorifning yuksalishi", Samarqand shahrida "Amir Temur shaxsinining zamondoshlari tomonidan baholanishi va faoliyatining mustaqil O'zbekiston uchun ahamiyati", Germaniyada "Amir Temur va uning tarixdagi o'rni", Toshkent shahrida "Amir Temur va Ulug'bek zamondoshlari xotiralarida", Fransiya poytaxti Parij shahrida "Temuriylar davrida ilm fan, madaniyat va maorifning gullab yashnashi" xalqaro konferensiyalarining o'tkazilishi bu borada amalga oshirilayotgan amaliy faoliyatdan namunalar xolos[1].

O'zbek bastakori A.Ikromovning "Buyuk Temur" tarixiy operasi muallifi I.Djiyanov, kompozitor X.Raximovning "Sohibqiron abadiyati" oratoriyasi muallifi J.Jabborov, M.Bafoevning kinomusiqasi "Sohibqiron" filmi rejissori S.Muxtorovlar bilan hamkorliklari bu boradagi amaliy ishlarning mustaqillikdan keyingi davr uchun deyochoasi deyish mumkin. Aynan san'atshunoslardan tomonidan yaratilgan asarlarni ilmiy tadqiq etishga mo'ljallangan ilmiy izlanishlar olib borildi [2].

Mustaqillikka qadar bizda I.Mo'minov tomonidan sohibqironning markazlashgan saltanat barpo etishga qadar bo'lgan faoliyati keskin tanqidga uchrab, Amir Temur shaxsi 1970 - yillarda rasman "qora ro'yhatga" kirilgan, yurt murakkab siyosiy vaziyatni boshdan kechirayotgan pallalarda xorij mamlakatlarida ushbu ulug' sarkarda faoliyatini chuqur ilmiy tadqiq etayotgan olimlar, san'atkor va dramaturglar, tarixchi va adiblar faoliyat olib borish edi. Jumladan, o'zabayjon shoiri, dramaturgi Huseyn Jovid buyuk sarkardani san'at rahnamosi sifatida "Temurlang" sahna asarida ko'rsatishga musharraf bo'ldi [3]. Aynan Amir Temurni san'at, ilm fan rahnamosi sifatidagi faoliyatiga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar olib borishda G.Pugachenko, E.Rtveladze, A.Nazarov, M.Qodirovlarning, adabiyot va dramaturgiyada

yoritilgan sohibqiron siymosiga ba'ishlangan ilmiy izlanishlarni B.Ermatov, X.Karomatov, M.Hamrayeva, N.Hamrayevalar olib borishgani bu sohada ham istiqlol yillarida yangicha qarashlar shakllanayotganligini asoslaydi.

Yevropa kompozitorlik ijodining buyuk namoyondalari Franchesko Gasparini, Georg Fridrix Gendel, Antonio Vivaldi musiqiy sahnaviy asarlarining bosh qahramonlari ham buyuk Temur edi. Bu asarlarda Amir Temur talqinlarining bir-biriga o'xshash va farqli jihatlarini o'rganishda ular yashagan davr Yevropa musiqiy san'atining umumiy qonuniyatlari, badiiy tamoyillari, dramaturgiya va musiqa janrlarining o'ziga xosligini inobatga olgan holda Amir Temur obrazining sahnaviy talqinlarini adabiyotshunoslar nuqtai nazaridan asoslash[4] muhim sanaladi. Retrospektiv, tarixiy-prosessual, qiyosiy, majmuaviy va tizimli usullardan foydalanish yuqoridagi maqsadlarga erishi uchun asosiy omillardan sanaladi. Chunki Amir Temur tarixiy shaxsi Yevropa adiblari asarlarida Tamburlaine, Tamurlan, Tamerlan deb nomlanishiga qaramay, Uyg'onish davri Yevropa adabiyotiga qadar u oddiy xalq orasidan yetishib chiqib, o'z iqtidori, mehnati va uddaburonligi evaziga yarim dunyoni zabtkori bo'lgan fotixga aylana olganligini "Xudo tomonidan in'om etilgan qirolik" nazariyalarini chil-parchin etgan oddiy cho'pon, atrofida laklak lashkarlarni birlashtira olgan ustamon sarkarda sifatida tasvirlangan bo'lsa, Uyg'onish davri va ma'rifatchilik davri adabiyotida u jasur, mard va adolatpesha fotix, keyinchalik tengi yo'q shaxs sifatida adabiyotda qahramon sifatida kirib keldi[5].

Fransiyalik tarixchi olim Vinsent Furne Amir Temur shaxsi Yevropada yozma ijod namunalari kirib kelishidan ancha oldin ma'lum ekanligini bayon qilgan fikrlariga tayanib xulosa qilish mumkinki, nafaqat Yevropa qirollari solnomalarida bu buyuk Sharq podshosi haqida elchilik aloqalari va qirolik yozishmalari, shuningdek, Yevropaga tahdid solib turgan Boyazidni yengan Osiyolik sarkarda haqidagi turk va uyg'urlarning xalq orasidagi mish-mish va tasavvurlariga asoslangan uydirmalarining keng urchigani ham saba bo'lgan bo'lishi mumkin. Shunga qaramasdan, Rui Gonzales de Kalvixo, Antoni Jenkinson safarnomalari, Ibn Arabshox, Ali Yazdiy asarlari Yevropa tillariga qilingan tarjimalari bu ma'lumotlarning naqadar ishonchli ekanligi haqida tasavvur uyg'otganligi ham asrlar osha ijobiylasha boshlagan Temur obraziga ta'sir qilgani shubhasiz[6].

Ammo Yevropa adabiyoti namunalari orasida o'zbek olimlari tomonidan tadqiq etilmagan asarlar talaygina. Shular jumlasiga Manuel II Palelog qalamiga mansub "Temur mag'lub bo'lgan Boyazid haqida so'zlaganlari" asaridir. Ushbu asarning yozilishi Vizantiya va Yunon tarixchilari Laonikos Xalkokondiley, Jorjios Frantes va Dukas solnomalarida qayd etilgan ma'lumotlarga tayanilgan. Ushbu asarlarda, xususan Dukas asarlarida Amir Temurning insoniy fazilatlarini yoritilganligi, Jorjios Frantes esa Temur va Boyazid munosabatlarini solnomasini yaratganligini, Vizaniya olimi asarida Amir Temur Boyazidga nisbatan munosabatlarida uning naqadar tanti va saxiyligi bayon etilganligi aytib o'tiladi. Yana bir ilk solnoma asarlari sirasiga Filippus Lonekirus tarixiy solnomasi misol bo'la oladi. "Turk xronikasi" da Amir Temur va turk sultonining o'zaro munosabatlari asosiy o'rin egallaydi. O'rta asrlar Yevropa tarixchisi Petros Perondinosning "Skif imperatori buyuk Temur hayoti" (1553) asarida Boyazid ismini Orzobelus tarjida qo'llaganini muallif talaffuz talablari deb qabul qilish joiz. XVI sarda yashab ijod etgan tarixchi Pedro Meksika ijod namunasi bo'lgan "Dars saboqlari" asarini yozishda turklar tarixiga oid ungacha ma'lum bo'lgan Fugos, B.Nono, M.Palmerio singari qator tarixchilar asarlaridan manba sifatida foydalanganini qayd etadi. Shuningdek, ushbu jahongirning harbiy faoliyatiga oid Paolo Jiovioning tavsifnomasida buyuk sarkardaning harbiy, tarixiy, diplomatiya

masalalari o'rta tashlanadi. 1531 yilda Venetsiyada "Turklar haqida sharxlar" kitobi nashr etiladi. 1590 yilda Frankfurtida "Turkiy millatning yangi xronikasi, turkiylar izohida" asari muallifi XVI asr nemis tarixchisi Ioxann Levenklou Amir Temurning dunyo bo'ylab amalga oshirgan faoliyatini yoritadi. 1597 yilda esa Germaniyada Jan Jak Buassar qalamiga mansub "Turk sultoni ramzlari" asaridan boshqa asarlarda uchramagan jihatlar talaygina, asar qadimgi yunon tilida bo'lib, u o'zidan avval bu mavzuda qalab tebratgan I.Livenklou asari syujetiga hamohang tarzda, ba'zi manbalarni o'zgartirishlar bilan bayon etadi. XVIII asrda esa "Temur tuzuklari"ni ilk bor fransuz tiliga tarjima qilgan akademik Langle Lui Matyening "Temur hayoti" asari bizgacha yetib keldi[7]. Ushbu asarning o'ziga xosligi shundaki, u o'ziga qadar bo'lgan mualliflarning g'arbona yevrosentrizmiga asoslanmagan tarzda, Amir Temurning Sharqona qiyofasini yaratgan asarlarga tayanishni ma'qul ko'rdi. U tarixiy dalillar, sharqona manbalarga tayangan holda Amir Temurning harbiy yurishlari, amalga oshirgan obodonchilik va memorchilik faoliyati, o'zi yashagan davrning ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy va savdo hayotini o'zgartirishga hissa qo'shgan hissasi haqida mushohada yuritadi. Asar xulosasida muallif Amir Temurni fazilatli inson sifatida baholash xulosasini bayon etib: "Temur do'stlik rishtalarini nihoyatda yuqori baholagan. Uningcha, boylikka lashkarlar va tilyog'lamachilarni sotib olish mumkin bo'lsa, do'stlik faqat do'stona ishlar bilan o'lchanib hisob qilinadi" [8]. Shunga qaramasdan, unga tanqidiy baho berishni o'ziga munosib ko'rmagan muallif, uning harbiy yurishlarini oqlamasligini bayon etadi. U o'z izlanishlari liniyasini Temurning dunyoni zabt etish yo'lidagi maqsadini: hukumati zulmidan iztirob chekkan xalqlarni mushkul ahvoldan qutqarish, urush va muttasil talon tarojliklar ostida qolgan Osiyoning mayda xokimliklarini yagona davlatga aylantirish - uning fikricha odamlarni baxtli qilishning yagona yo'li edi, deb baholaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Boshqa sohalarda bo'lgani kabi dramaturgiya va san'at sohasida ham buyuk ajdodimiz siymosini tarannum etuvchi musiqiy va sahna asarlarini yaratish bo'yicha ham faoliyat olib borilmoqda. Yevropa teatr mavsumining boshlanishi ramziy va an'anaviy tarzda buyuk Temurga bag'ishlangan sahna asarlari bilan ochib berilishi bizni qanchalik faxrlantirsa, o'zbek teatr va musiqiy sahnalari ko'ragon shaxsini madh etuvchi asarlari bilan bezalishi shunchalik g'ururli. Temuriylar davri, buyuk sohibqiron shaxsiyati va fazilatlarini, uning saltanati sayi ahli va mansabdorlari, memoriy va amaliy san'ati yodgorliklari haqida qimmatli ma'lumotlar beruvchi Venger olimi, Sharq adabiyoti va tillari universiteti professori Arminiy Herman (German) Vamberi qalamiga mansub "Buxoro tarixi" asariga tayanib ma'lumot beradi. Yevropa tarixchilari orasida aynan Herman Vamberi boshqa ko'pgina tarixchilarning Chingizxonning yaxshiyliklari va bosqinchiliklari, talon tarojliklari va g'anamlari, ularning haramiga munosabatini Amir Temur bilan o'xshashlikda deb bilishadi. Ayniqsa Chingizxonning "Dushmanning ahli ayolini quchoqqa olmoqdan rohatlirog'i yo'q" qabilidagi mashhur iborasini Yeldirim Boyazidni yengan Temur g'animni qafasga solib ayollari bilan maishat qilganlikda ayblashadi [9]. Lekin A.Vamberi mana shu noto'g'ri farazlarni inkor etib, "U eng avvalo Osiyo sarkardasi bo'lib, uning shuxrat qurolini o'z an'anasiga ko'ra qo'llagan; daxshatomuz, yaxshiy harakatlari, aybli ishlari uchun ayblangan barcha dushmanlariga nisbatan u jazo o'rinda, goho qat'iy bo'lishiga qaramay biroq hamisha adolatli bo'lgan". Muallif Yevropalik tarixchilar orasida har tomonlama Amir Temur shaxsiyatini o'rgangan holda, uning barcha qo'lga kiritgan boyliklarini yurti markaziga, o'z yurtini ilm fan, san'at markaziga aylantirish uchun sarflaganini, uning O'rta Osiyo xalqi orasidagi xizmatlarini va yurti tarixida tutgan mavqeini

yuqori baholab, yangi yuksak madaniyat (Renessans) davri ochilishida xissasi ulkan ekanligini urg'ulaydi. Shuningdek, Temur o'z ahli saroyi ilm ahllarining rahnamosi ekanligini shoirlardan Ahmad Hirmaniy bilan bo'lgan samimiy suhbatini misolida ko'rsatishga intiladi. Ushbu tarixiy asarda saroy ahli, sohibqiron oilasi, mansabdor zodagonlar, din egalari munosabati baholanib, ularning barchasi uning tarixiy xizmatlari uning Osiyo va Yevropada katta shuxrat topishiga sabab edi deya e'tirof etadi [10].

Tahlil va natijalar. Dunyo adabiyotshunoslari orasida mashhur nemis shoiri Iohann Volfgang Gyotening "Mag'rib Mashriq devoni (G'arbu Sharq devoni)"da yaratilgan "Temurnoma" qismi Ibn Arabshox tomonidan bitilgan Amir Temur vafoti xronikasining so'zma so'z tarjima variant hisoblanadi. Demak, shoir arab tarixshunosi asaridan yaxshigina xabardor bo'lgan. Unga qo'shimcha ravishda Gyote Amir Temur va Napoleonning dunyoga keltirgan ofatlarini taqqoslaydi. Unda qish chillasi ilohiy kuchga ega ekanligi ramziy ma'no kasb etib, u Napoleonning fojiali jangi bilan idrok etiladi. Asarning ikkinchi qismida sharqona yana bir ismli mahbuba Zulayhoga mashaqqatlar bilan qo'lg'a kiritgan atir gullarini baxshida etmoqqa shaylanadi. Ushbu asar xulosasini san'atshunos Ravshanoy Tursunova Gyoteshunos Annemari Shimmel xulosalariga tayangan holda "ma'lum mukammallikni yaratish uchun behisob mavjudotlarni nobud etish lozim, qahramonlar taqdiri va hayoti Alloh tomonidan belgilab berilgan"[11] ekanligi haqidagi xulosalarini bayon etadi. Gyotening "Temurnoma"si Yevropaning buyuk yana ikki adibi Jan Rasin va Volter asarlariga ham kiritilgan.

Yevropa sahnalarida Amir Temur siymosiga bag'ishlangan sahna asalarining yaratilishi "Ingliz tragediyasining otasi" Kristofer Marloning "Buyuk Temur" (The great Tamburlaine) tragediyasi bilan boshlanganligi aytib o'tilsa, fransiya dramaturglari Kornel, Moler va boshqalar orasida Jan Batist Rasin Temur bilan bog'liq sahna asarlarini yaratishda peshqadam sanaladi. Uning 1672 yilda yaratilgan "Bajaset" (Boyazid) sana asari fransuz klassik fojia janrini rivojlanishiga turtki bo'lgan. Aynan mana shu asari muvaffaqiyatidan u Fransuz akademiyasiga qabul qilingan bo'lib, uning dramasi Sharq ellari hayot tarjini tomoshabin tasavvurlarida ishonarli va haqqoniy chiqishini ta'minlash uchun aktyorlarning haqqoniy turk liboslarida chiqishini talab etadi. Chunki unga qadar Yevropa rassomlari Amir Temur shaxsini g'arbona liboslarda tasvirlar, Amir Temur ko'rinishini o'z milliy qiyofalarida gavdalantirar, she'rlar, badiiy asarlarda ham Yevropa aholi tafakkurida o'z zamonasi qirollariga xos sarkardalik kayfiyati ufurib turuvchi ko'rinishlarda berilar edi [12].

ADABIYOTLAR

1. Yaxshiyeva Z.R. Temuriyodalar haqida tarixiy haqiqat va badiiy voqelik .QDU xabarlar. – 2025. B. 140.
2. Tursunova R.A. G'arbiy Yevropa operalarida Amir Temur obrazi. San'at.fal.falsafa.dok. diss. Toshkent., 2020. 190 b.
3. Temuriylar davriga oid tarixiy manbalar: tavsif, tarjima va tadqiqot. T.: Akademnashr.2011. – B. 190.
4. Yaxshiyeva Z.R. O'zbek va jahon temurshunosligi rivojida yozma manbalar tadqiqi. BuxDU xabarlar. 2025. – B. 121.
5. Ermatov B. G'arbiy Yevropa mamlakatlari adabiyotlarida Amir Temur siymosi. Fil.fan. dok. Diss. Avtoref.T., 2019. B.60.
6. Yaxshiyeva.Z. XVI asr ingliz adabiyotida yoritilgan temur obrazining qiyosiy tahlili. Scientific Bulletin of NamSU-Научный Вестник НамГУ-НамДУ ilmiy axborotnomasi–2023. 8-son. 345-350.
7. Tursunova. R.A. G'arbiy Yevropa operalarida Amir Temur obrazi. San'at.fal.falsafa.dok. diss. Toshkent., 2020. B. 21.
8. Тамерлан. Эпоха. Личност. Деяния.М., Гураш. 1992. С.455.
9. Yaxshiyeva Z.R. G'arb va Sharq adabiyotida Amir Temur prototipi asossida yaratilgan asarlar tadqiqi. O'zbekiston: til va madaniyat. Adabiyotshunoslik. 2024. Vol. 1[2] ISSN 2181-92-2x. www.literature.tssull.uz 120-138.
10. Тамерлан. Эпоха. Личност. Деяния.М., Гураш. 1992. С-397.
11. Tursunova R.A. G'arbiy Yevropa operalarida Amir Temur obrazi. San'at.fal.falsafa.dok. diss. Toshkent., 2020. B. 24.
12. Yaxshiyeva Z.R. Alisher Navoiy va ingliz adiblari ijodida Amir Temur obrazi talqinlari. Alisher Navoiy. Xalqaro jurnali. ISSN. 2181-9904. Doi Jurnal. 10.26739/8121-9904. 2023.3-jild, 2 son. 25-30.
13. Hukhem X. Yetti iqlim sultoni. Hujjatli tarixiy qissa. Rus tilida. Tarj. –T.: Adolat, 1999. - B. 320.
14. Yakhshiyeva Z.R. Exploration of the linguistic style of novels about Amir Timur. Journal of advanced linguistic studies vol. 10, no. 2, Jul-dec 2023 (ISSN 2231-4075). 128-137.
15. Keren L. Temur yohud Sohibqiron saltanati. Toshkent.: Ma'naviyat. 1999. – B.224

XX asrda shuningdek, Amir Temur haqidagi Yevropa sharqshunoslarining jamlanma asarlari ro'yhati 1913 yilda nemis olimi Maks Degenxard tomonidan bibliografiya shaklida nashr etildi. "Amir Temur G'arbiy Yevropa adabiyotida" nomli ushbu tadqiqotda ilk bor ilmiy nuqtai nazardan Amir Temurga bag'ishlangan asarlar, shuningdek ilk bor nashr etilgan manbalar haqida ma'lumotlar keltirilgan. O'z asarida ilmiy tadqiqotchi sharq mavzularini Amir Temur va Boyazid timsolida Yevropa sahnalariga kirib kelishini ilmiy asoslab bergan. Chunki Yevropa sahna asarlari orasida eng mashhurlari shunhasiz Amir Temurga bag'ishlangan sahna asarlari bo'lib, Charlz Sabderz, Nikolas Roularning "Buyuk Temur" dramatik asarlari asrlar davomida qayta qayta namoyishtalabligi bilan qolgan barcha asarlardan ilgari ketgan edi. Bunga sabab, tomoshabimlar bu sahna asarlari bosh qahramonlari Temur obrazi timsolida o'z orzu umidlari, zamona qirollari ularga bera olmayotgan botirlik va adolatni izlashsa, yurtning kiborlari bu sahna asarlarida o'z nuqsonlarini ko'ra olardi [14].

Xulosa va takliflar. Amir Temurning olamshumul shaxsi va hayot yo'lini o'rganish dunyo sharqshunoslarini, tarixshi va olimlarini qiziqitirgan mavzulardan biri bo'lib kelgan. Ular faoliyati esa maxsus temurshunoslarni shakllanishiga turtki bo'lgan. Fransuz san'at tarixchi olimi Rene Grusse, Lyusen Keren fransuz olimlari orasida Osiyoning bu buyuk fotixiga bag'ishlangan tadqiqotlarga salmoqli hissa qo'shib kelishgan. Lyusen Kerenning "Temur yohud sohibqiron saltanati" asari, Rene Grussening "Atilla, Chingizxon, Temur (1938)" asarlari Yevropa, xitoy, fors va boshqa manbalarga tayanilgan. L.Keren Amir Temurni mansabdorlarni tayinlashda ularning ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar, qobiliyatiga ahamiyat qaratganini, o'z davrining ko'zga ko'ringan sarkardasi sifatida, uning harbiy tashkilotchiligi, davlatida boshchilik qilishida uning insoniylik omili bosh o'rinda bo'ganligini alohida ta'kidlaydi. Ayniqsa, uning murakkab shaxs sifatida o'rganishda tarozuning ikki pallasiga uning turfa talqinlarini qo'yadi. "Bir tomonda qattiqqo'l Temur tursa, ikkinchi tomonda ilm ahlini qutlab, himoyasiga oladiga Temur turardi; bir tomonda katta katta shaharlarni zabt qiluvchi temur tursa, ikkinchi tomonda obida, madrasa va anhorlar quruvchi va bog'lar barpo etuvchi Temur turardi"[15]. Yana bit taniqli fransuz oloimi Jam Pol Ru o'zining "Temur" asarida u haqida bitilgan yuzdan ortiq asarlar ruyhatini keltiradi. Shuningdek, ingliz olimasi, tarixchi va jurnalist Jastin Marossa qalamiga mansub "Temurlan, Islom qilichi, dunyo fotihi" asarining badiiy qiymati yuqori baholanib, yilning eng yaxshi kitoblari ro'yhatiga kiritildi.